

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А.М. Прохоров. – М.: Большая Рос. энциклопедия. СПб.: Норинт, 1997.
2. Егорова Т. В. Словарь иностранных слов русского языка. М.: Аделант, 2014. 799 с.
3. Пушкарев Л.Н. Что такое менталитет? // Отечественная история. – М., 1995. № 3. С. 158-166.
4. Дюби Ж. Развитие исторических исследований во Франции после 1950 года // Одиссей. – М., 1991.
5. Додонов Р.А. Этническая ментальность: опыт социально-философского исследования [Электронный ресурс] // Научные труды кафедры философии. URL: [http:// donntu.edu.ua/ russian/strukt/kafedrs/phil/works/i ndex.html](http://donntu.edu.ua/russian/strukt/kafedrs/phil/works/index.html)
6. Гвоздева А.А. Языковая картина мира: лингвокультурологические и гендерные особенности (на материале художественных произведений русскоязычных и англоязычных авторов): дис. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2003.
7. Тешабаева Д.М. Ментальность языка в медиaprостранстве. <file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-yazyka-v-mediaprostranstve.pdf>

IJTIMOIIY-SIYOSIIY MATNLARDA MENTALLIKNING VOQEALANISHI

O‘g‘iloy MAMARAIMOVA

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** Jahon tilshunosligida mediamakonda axborotning verbal ifodasi hamda dunyoda sodir bo‘layotgan voqea hodisalari yoritishda tilning cheksiz imkoniyatlarini o‘rganish ko‘plab sabablarga ko‘ra dolzarb va muhim bo‘lib bormoqda. Bu turli media maydonlarda barcha turdagi axborotlarni tarqatish kommunikativ jarayon sifatida baholanishi bilan belgilanadi.*

***Kalit so‘zlar:** media, internet nashri, mentallik, ijtimoiy-siyosiy, sohaviy leksika, dunyo manzarasi, madaniy so‘zlar.*

Media tili ommaviy axborot vositalari vazifalaridan kelib chiqib jamoatchilikka ta’sir qilish, asosli qarorlar qabul qilish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish imkonini beradi hamda jamoatchilik fikri, stereotiplar, g‘oyalar va qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Media tilining mental jihatlarini tadqiqi muayyan mamlakat yoki mintaqaviy qadriyatlar, an’analar va ijtimoiy jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam

beradi. Jumladan, elektron gazeta matning qadriyatlar asosida uning mental xususiyatlarini tadqiq etishni taqozo etadi.

Zamonaviy OAV tilining o'ziga xosligini, funksional va kommunikativ uslubiy xususiyatlari, milliy tillarda millatlararo sifatlarning OAV yordamida shakllanishi "turli mamlakatlarning turli madaniy an'analari, millat dunyoqarashi, madaniyat ildizlari va milliy mentaliteti bilan bog'liqligi ochib berildi"⁷².

Ijtimoiy-siyosiy matnlarni shakllantirish bu – siyosiy voqealar, g'oyalar, qarashlar yoki pozitsiyalar haqida ma'lumot beruvchi matn materialini yaratish jarayonidir. Matbuotda siyosiy matnlar xilma-xillik xususiyatiga ega bo'lib, ular maqolalar, bayonotlar, ommaviy bayonotlar va h.k. turlarga bo'linadi.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy aspektlar va til hodisalari o'rtasidagi munosabat murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Biroq, so'z va iboralar darajasida ijtimoiy-madaniy omillarning leksikaga ta'siri eng aniq namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda, til hodisalarini o'rganish jarayonida, ijtimoiy hodisalarni kuzatishdan ko'ra, jamiyat haqida ko'proq narsani anglab olib mumkin.

Shuni alohida qayd etish kerakki, zamonaviy o'zbek jamiyatidagi mental-lingvistik muhit, mediamatnlarda taqdim etilganidek, bir nechta o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga oladi. Bu muhitning muhim elementlari:

- 1) elektron gazeta matnlarning mazmuni;
- 2) mualliflarning lingvistik ongi;
- 3) gazetxonlarning lingvistik ongi;
- 4) ijtimoiy-siyosiy kontekst. Ushbu komponentlarning barchasi media matnlarning mazmuni va idrokiga ta'sir qiladi va voqea modelini yaratishda rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-siyosiy kontekst jamiyat evolyusiyasi jarayonida yangi tushunchalar paydo bo'lishi va oldindan mavjud bo'lgan ma'nolari oydinlashishiga va kengayishiga sabab bo'ladi. Ushbu yangi terminologik iboralar va shunga o'xshash hodisalar shakllanadi.

Mental mavjudlikda siyosiy harakatlarni aks ettiruvchi so'z birikmalari:

⁷²Тешабаева Д.М. Ментальность языка в медиапространстве. <file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-yazyka-v-mediaprostranstve.pdf>;

“Mehr-5” operatsiyasi: 93 nafar o‘zbekistonlik Suriyadan olib kelindi (sarlavha).

“Mehr-5” operatsiyasi doirasida 93 nafar o‘zbekistonlik — 24 nafar ayol va 69 nafar bolalar Suriyadan Toshkentga olib kelindi.

Jumladan, **“Mehr” insonparvarlik operatsiyasi** doirasida 2019 yilda [Suriyadan](#) 156 nafar o‘zbekistonlik, asosan, ayollar va bolalar, 2019 yilning oktabrida [Iroqdan](#) 64 nafar o‘zbekistonlik bola, 2020 yilning dekabrda (**“Mehr-3”**) [Suriyadan](#) 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 2021 yildagi “Mehr-4” operatsiyada esa 24 nafar fuqaro [Afg‘onistondan](#) **O‘zbekistonga qaytarilgan edi**”⁷³.

Muayyan ta’sirga erishish va kerakli voqelikni yaratish uchun jurnalistlar ijobiy va ko‘p hollarda salbiy ijtimoiy baho berishi mumkin bo‘lgan ifoda vositalaridan faol foydalanadilar. Jamiyat va siyosat mavzusidagi nashr shunchaki ma’lumot uzatish emas, balki ijtimoiy va mafkuraviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqidagi tushunchamizning ko‘p qismi har kuni ko‘rib, o‘qiydigan yangiliklarga asoslanadi.

Jurnalistlar vatanparvarlik hissini, aniq ifodalangan fuqarolik pozitsiyasini, haqqoniylik va rostgo‘ylikka intilish hislarini o‘z ichiga olgan professional prinsiplarga amal qilishadi. Masalan,

*“O‘zi tug‘ilib o‘sgan joy inson uchun Vatan hisoblanadi. Mahalla esa Vatan ichra kichik Vatandir. Agar mahallada hamjihatlik bo‘lsa, obodlik va ko‘rkamlikka hissa qo‘shuvchilar safi ko‘paysa, albatta, g‘ururlanishga arzirli maskanga aylanadi... Maqsad Vatan ichra Vatan hisoblangan mahallarning gullab-yashnashi, obod va go‘zal qiyofa kasb etishiga erishish ekan, bunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatlari o‘zlarini burchli ekanini doim his qilgan holda ish olib borishlari lozim. Zero, yurt ertasi, istiqboli va taraqqiyoti mahallalar obodligi hamda go‘zalligi bilan chambarchas bog‘liqdir”*⁷⁴.

Siyosiy tilning mentalligi siyosiy muloqotda foydalaniladigan leksik vositalar va obrazlarga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu turdagi tilning o‘ziga xos xususiyatlari

⁷³ <https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/30/mehr/>

⁷⁴ <https://xs.uz/uzkr/post/mahalla-kichik-vatan-u-aholida-har-zhihatdan-gurur-va-fakhr-ujgotishi-lozim.25.05.2021>

va maqsadlari mavjud bo'lib, ular siyosiy kontekstga, madaniy xususiyatlar va siyosatchilarning muloqot strategiyalari duch keladigan muammolarga qarab farq qilishi mumkin. Siyosiy til mentalligining quyidagi jihatlari mavjud:

Siyosiy tilning mentalligi ko'pincha muayyan siyosiy mafkura va maqsadlar bilan bog'lanadi hamda auditoriya tomonidan qo'llab-quvvatlanish uchun til imkoniyatlaridan foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Тешабаева Д. М. Ментальность языка в медиaprостранстве. <file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-yazyka-v-mediaprostranstve.pdf>;
2. История ментальностей, историческая антропология: зарубежные исследования в обзорах и рефератах. – М., 1996. – 255 с.
3. Малахов В., Филатов В. Современная западная философия: словарь [Электронный ресурс]. 1998. URL: <http://terme.ru/dictionary/189>.
4. Додонов Р. А. Этническая ментальность: опыт социально-философского исследования [Электронный ресурс] // Научные труды кафедры философии. URL: [http:// donntu.edu.ua/ russian/strukt/kafedrs/phil/works/index.html](http://donntu.edu.ua/russian/strukt/kafedrs/phil/works/index.html)

IJTIMOIIY MEDIA KOMPONENTLARI: TAHLIL VA MUNOSABAT

Bumoxira SULAYMANOVA
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ijtimoiy media zamonaviy inson hayotida mustahkam o'rnashgan bo'lib, birinchi navbatda muloqot uchun platforma yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy mediada ta'lim mazmunini o'z ichiga olgan turli guruhlar, sahifalar, profillar faol rivojlanmoqda va shu bilan bir qator ta'lim imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu ilmiy muammoni tahlil qilishda ijtimoiy mediadan umumiy o'qitish va xususan ingliz tilini o'qitish uchun foydalanish bilan bog'liq tadqiqotlarni tahlil qilish qo'yilayotgan masalani mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: xorijiy t'lim, ijtimoiy media, jurnalistika, axborot, kommunikatsiya, texnologiya.

Ijtimoiy medianing faqatgina axborot olishdan tashqari turli sohalarda ham keng qo'llanilishi uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish mumkinligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'zlashtirishda uni ta'limning yangicha texnologiyasi sifatida